

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

**SHARQ FALSAFASI VA GERMENEVTIKA
KAFEDRASI**



**"SHARQ ALLOMALARI YOZMA
MEROSINING ILMIY, FALSAFIY,
MA'NAVIY TAFAKKURDAGI O'RNINI"**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMANI MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025

табиатнинг қонуниятларини тушунишга ҳаракат қилинди. Марказий Осиё алломалари бу жараённинг етакчилари бўлиб, уларнинг асарлари фалсафий фикрни чуқурлаштиришга хизмат қилди.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Ўзбекистон нашриёти. Тошкент, 2022. – Б. 15-16.
2. А.Мухамедов. Юсуф Хос Ҳожиб ва Мишель Монтень ижтимоий-фалсафий меросининг компаративистикаси. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2024 й. – Б. 16.
3. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент, 1993 й. 1-3-жилдлар.
4. Х.Мардонов. "“Девону луғотит турк”нинг яратилиши ва манбалари" International scientific journal of Biruni, № 3, 2023, — Б. 108.
5. <https://president.uz/oz/lists/view/3864> — Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. Мурожаат этилган сана: 07.01.2023

AJDODLARIMIZNING BOY MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA YOSHLARNI YUKSAK AXLOQIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH MASALALRI

*Tog'ayev Nodirjon Ergashevich,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
dotsenti, falsafa doktori (PhD).*

Bugungi globalashuv asrida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy sohadagi demokratik islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri O'zbekistonni yuksak ma'naviyat hamda madaniyatga ega bo'lgan, erkin va baxtli insonlar yashaydigan ma'rifatli jamiyatga aylantirishdir. Mana shunday oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarga erishishimiz, ya'ni O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni barpo etish har birimizga bog'liq bo'lgan eng asosiy masalalardan biridir. Avvalo, buning uchun barchamiz bunyod etilayotgan yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatimizga munosib bo'lish uchun milliy qadriyatlarimiz hamda boy tarixiy madaniyatimizga tayangan holda zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan mustahkamlangan intellektual salohiyatga ega yoshlarimizni tarbiyalashimiz lozim. Hozirda ilm-ma'rifatga asoslangan Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat barpo etish uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etmoqdamiz.

Bugungi kunda yoshlarning yuksak ma'naviyatga erishuvini ta'minlash, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan hamda intellektual salohiyatli yoshlarni voyaga yetkazishdir. Shunday maqsadni ko'zlangan ko'pmillatli O'zbekistonda bir maqsad sari intilish, yoshlarning kelajagini o'ylash, fuqorolik jamiyatini rivojlantirishda yoshlarning o'zni va ularda

zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish hamda rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu haqda Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va ishonaman xudo xohlasa havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham bo‘ladi” [4,415] – deb ta’kidlaydilar.

XXI asr boshqa davlatlar singari O‘zbekistonning ham oldiga yechimini topishi zarur bo‘lgan bir qator muammolarni qo‘ydi. Bu muammolarning yechimi bevosita yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shunday ekan, bugungi kunda buyuk davlatga munosib barkamol avlodni tarbiyalash, ularni ma’naviy yetuk, jismonan baquvvat, ma’rifatli, yuqori darajali zamonaviy mutaxassis kadr qilib tarbiyalashda faol ish olib borish lozim. Har qanday mamlakatning ertangi kuni, kelajak taraqqiyoti birinchi o‘rinda yoshlarning jismoniy va ma’naviy kamoloti bilan o‘lchanadi. Ajdodlarimizning o‘tmishi, milliy va diniy an‘analarimiz, ma’naviy qadriyatlarimizni o‘rganish, xalqimizning milliy o‘zligini anglashi, demokratik, adolatli, huquqiy davlat rivojida fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning yaxlit bir dunyoqarashi shakllanishida nazariy poydevor vazifasini bajaradi.

Ajdodlarimiz tomonidan bizga qoldirilgan boy ilmiy-madaniy meros kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanishida Vatanga muhabbat, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik, ajdodlarga munosib farzand bo‘lib voyaga yetish hamda ularning bunyodkorlik faoliyatini davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar o‘tmish merosimizni ulkan bir daryo deb tasavvur etsak, bu boradagi hozirgi bilim va tasavvurlarimiz undan bir tomchi xolos. Bugungi kunda erishgan eng katta yutuqlarimizdan biri bu buyuk ajdodlarimiz milliy-ma’naviy merosining qayta tiklanishidir. So‘ngi yillar ichida o‘tmish milliy-ma’naviy va madaniy merosni o‘rganish, ularning mamlakatimizda ma’rifatli jamiyat barpo etishda, ayniqsa yoshlar ta’lim-tarbiyasiga, ma’naviyatiga ta’sirini ko‘plab soha vakillari tadqiq qilmoqdalar.

Xalqimizning uzoq o‘tmish tarixi shundan dalolat beradiki, insoniyatning ma’naviy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan boy ma’naviy-madaniy meros va buyuk qadriyatlar sohibimiz. Bu haqda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Bizning qanday buyuk va shonli o‘tmishimiz, qanday ulug‘ ajdodlarimiz borligini yaxshi bilamiz va bu bilan hamisha faxrlanamiz” [5,191] – deb ta’kidlab o‘tadilar.

Bizning donishmand ajdodlarimizning barchasi ilm-ma’rifatni ulug‘laganlar, insonni axloqli, tarbiyali bo‘lishga, Vatanni sevishga, insonparvar hamda millatparvar bo‘lishga undaganlar. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma’naviy meros, ulkan kashfiyotlar inson dunyoqarashi, ayniqsa yosh avlod dunyoqarashini shakllantirish hamda rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Yosh avlodda insoniy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishda milliy-ma’naviy merosimizdan foydalanmog‘imiz lozim, chunki ajdodlarimiz merosida ta’lim-tarbiya, axloqqa doir masalalar chuqur ishlab chiqilgan.

Ajdodlarimiz tomonidan bizga qoldirilgan boy milliy-ma’naviy meros kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida

shakllanishida, Vatanga muhabbat, millatparvarlik, ajdodlarga munosib farzand bo‘lish va ularning bunyodkorlik faoliyatini davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqimizning uzoq o‘tmish tarixi shundan dalolat beradiki, insoniyatning ma‘naviy kamolatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan boy ma‘naviy-madaniy meros, buyuk qadriyatlar sohibimiz. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz: „Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi tosh-yozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san‘at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me‘morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma‘naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi” [2,31] – deb ta‘kidlaydi.

Bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizning ma‘naviy hayotida ajdodlarimiz tomonidan yaratib qoldirilgan boy ilmiy meros juda katta ta‘lim-tarbiya vasifasini o‘taydi. Ta‘lim-tarbiyani takomillashtirmay turib ma‘naviy barkamol insonni tarbiyalash mushkul. Globallashuv asrida xalqimizning, ayniqsa yoshlarimiz ongida ma‘naviy bo‘shliqning paydo bo‘lishini oldini olish maqsadida ularni turli sohalarga jalb qilish, kasb-hunar o‘rganishi, ularni milliy-ma‘naviy tarbiyalash uchun mamlakatimizda yetarlicha sharoitlar yaratilgan.

Yosh avlodni axloqiy yetuk shaxs sifatida tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini o‘stirish, ilm berish, halol mehnat va kasbga o‘rgatish jarayonida hadislardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki, axloq-odob, farzandlarni ota-onalarning oldidagi burchlarini mukammal ado etish zarurligi, hech bir kimsaga ozor bermaslik, solih va qobil bo‘lishlari, ta‘lim-tarbiya, oilaviy muhitning barqarorligi hamda yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish kabi ko‘plab ijtimoiy-axloqiy masalalarga hadislarida alohida e‘tibor berilganligi bilan ham muhim manba hisoblanadi.

Masalan, Imom Buxoriy hadislarida: “Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: “Hech kim o‘z qo‘li bilan topgan rizqidan ko‘ra lazzatliroq taom yemagan. Oллоhning payg‘ambari Dovud alayhissalom ham o‘z qo‘llarining mehnati birlan tirikchilik qilganlar” [1,9] — deb ta‘kidlanadi.

Yoshlarning ma‘naviy yuksalish jarayonida uning barcha huquqiy, siyosiy, axloqiy, madaniy va mafkuraviy tasavvurlari ijtimoiy tuzum va tizimlarning ta‘siri tufayli shakllanib va rivojlanib boradi. Natijada yoshlardagi sog‘lom, nafis jismoniy qiyofa, yuksak ma‘naviy his-tuyg‘ular, milliy tafakkur va tushunchalar birligi asosida millatparvarlik tarkib topadi. Yoshlarning milliy tafakkuri va millatparvarligi uyg‘unlashib ma‘naviy barkamollikni vujudga keltiradi. Yosh avlodni g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan tarbiyalash dolzarb masala ekanligiga e‘tibor qaratib, bu haqda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edi: “Biz hayotga katta orzu-umidlar bilan kirib kelayotgan yoshlarimizga bir haqiqatni, ya‘ni, „Ey bolam, sening Vatanning bitta — barchamizga aziz, betakror mana shu O‘zbekiston. Otabobolaringning xoki shu yerda yotibdi. Shu muqaddas zamin seni dunyoga keltirgan, sen uni obod etishing, himoya qilishing shart. Nafaqat sening o‘z hayoting, balki senga umid ko‘zini tikib turgan ota-onang, opa-singillaring, yosh go‘daklar, nuroniy

qariyalarimizning hayoti ham ana shu burchingni nechog‘lik ado etishingga bog‘liq” [3,273] – deb ta’kidlaydi.

Yoshlarni milliy qadriyatlarimizga sodiq qilib voyaga yetkazish va ularni zamon talablari asosida umuminsoniy taraqqiyotning yutuqlari, dunyo ilmlarini puxta egallab zamonaviy kadrlar bilan hamnafas qilib tarbiyalash lozim. Chunki bugungi globallashuv asri insoniyatning oldiga qo‘yayotgan talablariga tayyor bo‘lib yashash, har xil muammolarni o‘z vaqtida yechimini topish uchun, avvalo, eng zamonaviy bilim va dunyoqarash muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash millatparvarlikka erishish omili ekan, milliy qadriyatlar ham o‘z navbatida axloqiy fazilatlar kamolotini taqozo etadi.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya masalasi dolzarb ijtimoiy masalalarni qamrab olar ekan, avvalo har bir ota-ona o‘z farzandiga oilada yaxshi tarbiya bermog‘i lozim. Chunki xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan naql bor. Shuning uchun farzand tarbiyasida birinchi navbatda erkak kishining roli katta bo‘lishini barchamiz yaxshi anglashimiz kerak. Bugungi kunda ko‘pchiligimiz bu borada beparvo bo‘lib, farzandimizning ta’lim-tarbiyasiga befarq bo‘lamiz. Uning kim bilan do‘st bo‘lib, qanday ta’lim olayotganligidan ko‘ra o‘zimizning ishdagi faoliyatimizni ustun qo‘yamiz. Natijada nazoratsiz qolgan bola o‘zini qiziqtirgan turli o‘yinlarga berilib ketishi yoki ta’limga bo‘lgan intilishining o‘rniga o‘ziga yot axloqsiz g‘oyalarning ta’siriga tushib qolishi mumkin. Imom ibn Qayyum so‘z yuritar ekanlar “Ko‘pchilik farzandalarining axloqsiz bo‘lib, buzilib ketishi otalar tomonidan, ularning beparvoligi sababidan, ularga dindagi farz va sunnatlarni o‘rgatmasliklari tufayli yuzaga keladi. Otalar o‘z bolalarini yoshlik chog‘larida qarovsiz qoldirishgan bo‘lsa, ular katta bo‘lganlarida o‘zlariga ham, otalariga ham manfaat yetkazmaydilar” [6,22] — deb aytadilar.

Ajdodlarimiz buyuk va o‘ta murakkab tarixni o‘z boshidan kechirib, shuning evaziga o‘zining boy ilmiy-ma’naviy merosini yaratdi. Natijada biz donishmand va yuksak ma’naviyat sohibiga ega bo‘lgan xalq sifatida shakllandik. Bunday donishmand va yuksak ma’naviyatli xalqqina, o‘zining oldiga eng oliy ezgu maqsadi sifatida, erkin va farovon hayot qurishdek vazifa qo‘yishi mumkin. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ilmiy-madaniy meros yoshlarimizning tarbiyasi hamda ma’naviy yuksalishida, xalqimizning ma’rifatli jamiyat barpo etishida muhim ahamiyat kasb etadi va biz buning ustida faol ish olib borishimiz lozim.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki axloqiy qadriyatlar hamda ajdodlarimizning ibratlarga to‘la hayot yo‘llari, boy ilmiy, ma’naviy merosini chuqur o‘rganish, ularni keng xalq ommasi, ayniqsa, yoshlarimizni xabardor qilish, nafaqat barkamol avlod tarbiyasi, balki yurt tinchligi, xalq farovonligi yo‘lida amalga oshirilgan xayrli ishlardan hisoblanishi shubhasiz. Bizning boy ma’naviy merosimiz xalqimizni pokizalikka, ilmi, iymonli, e’tiqodli, sof vijdonli va insofli bo‘lishga da’vat etgan. Ajdodlarimizning axloq-odob va ta’lim-tarbiyaga oid pand-nasihatlar va o‘gitlari xalqimizni, ayniqsa yosh avlodni illatli va qabih yo‘llardan qaytarishda, shubhasiz, o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi, albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abu Abdulloh Muhammad Ismoil ibn al-Buxoriy. Hadis -2. T.: "Qomuslar bosh tahririyati". 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: „Ma'naviyat“, 2008,
3. Каримов И.А. Ватанимизнинг тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч-қудратимизга, халқимизнинг ҳамжиҳатлиги ва букилмас иродасига боғлиқ // Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т. 12. Т.: „Ўзбекистон“, 2004.
4. Мирзиёев Ш.М. Озод ва обод ватаннинг баркамол фарзандлари // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. Т.: „Ўзбекистон“, 2018. 415-бет.
5. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т. 2. Т.: „Ўзбекистон“, 2018. 191-бет.
6. O'zbekiston buyuk allomalar yurti. – Т., “Ma'naviyat”, 2010, 22-bet.

ABU NASR FAROBIYNING FARZAND TARBIYASI HAQIDAGI QARASHLARI

B.B.Mallabayev

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Namangan davlat universiteti

Ota-bobolarimizdan xalqimizga meros qolgan saxiylik, mehmondo'stlik, rostgo'ylik, tantilik, sadoqatlilik, poklik, odoblilik fazilatlari milliy xarakterning eng muhim jihati hisoblanadi. Ushbu xislatlarni ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlod ongida shakllantirish, ular ruhiyatini xalq durdonalari bilan boyitish, milliy qadriyatlardan oqilona foydalanishga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Axloq va odobli bo'lish, ota-onalar va kattalarga hurmat, samimiylik, inoqlik, qadriyat, vijdonlilik, iffatlilik, o'zaro yordam kabi insoniy xislatlar o'zbek xalqi ma'naviyatining ramzi sanaladi. Milliy ma'naviy boyligimizni o'quvchilar chuqur egallashlari uchun uning bebaho durdonalarini keng ko'lamda namoyish qilishimiz, bular to'g'risida yoshlar ongiga muayyan bilimlarni singdirishimiz zarur. Shuningdek o'sib kelayotgan yosh avlodga o'zi yashayotgan jamiyatda o'z-o'zini anglashi, o'rnini topa olishi va eliga xizmat qilishida ham sharq mutafakkirlarini qimmatbaho fikrlaridan foydalangan holda ta'lim-tarbiya berish o'qituvchi-murabbiylarning vazifasi hisoblanadi.

Shaxsning axloqiy o'z-o'zini anglashga ikki xil ta'rif berish mumkin:

1) o'zini-o'zi u yoki bu axloqiy ma'naviy me'yoriy o'lcham va qoidalarga asoslangan holda anglash.

2) axloqiy o'z-o'zini anglash bu o'zini-o'zi inson sifatida tasdiqlash va shu tariqa o'zligidan insoniylikni shakllantirishga nisbatan intilishdir. Inson hayoti o'zini-o'zi anglashdan boshlab, jismoniy, aqliy va ijtimoiy kamolotga erishuv jarayoni amalga oshishi bilan uyg'unlikda amal qiladi.

RASHIDOVA X.	ARAB-MUSULMON FALSAFASI RIVOJINING TARIXIY-MADANIY JIHATLARI	246
БУТАЕВА С.	ФИЛОСОФСКО-КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ МОДЕЛИ ИДЕАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА АЛЬ-ФАРАБИ И КОНЦЕПЦИИ КИТАЙСКОЙ ШКОЛЫ ЛЕГИЗМА	250
III. SHARQ FALSAFASIDAGI AXLOQIY QADRIYATLAR VA ULARNING YOSHLARNI YUKSAK MA'NAVİYATLI SHAXS ETIB TARBIYALASHDAGI O'RNI		
ПАРПИЕВ М.	МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ИЛК УЙФОНИШ ДАВРИ АЛЛОМАЛАРИНИНГ ИЛМИЙ ВА ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРИ	256
ТОГ'АЙЕВ N.	AJDODLARIMIZNING BOY MA'NAVİY MEROSI ASOSIDA YOSHLARNI YUKSAK AXLOQIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH MASALALRI	259
MALLABAYEV B.	ABU NASR FAROBİYNING FARZAND TARBIYASI HAQIDAGI QARASHLARI	263
MIRZAXMEDOV X.	"AL-ADAB AL-MUFRAD" ASARIDA TOLERANTLIK MADANIYATI	266
SAIDOV S.	IBN SINONING AXLOQ ILMIGA OID RISOLALARI	269
ABDUFATTAYEVA Sh.	MUSTAFO KOMILNING IJTIMOİY-MA'RIFIY G'OYALARI	273
NOGAIBAЕV I.	EKOLOGIYADA TIZIMLI YONDASHUVNING TARIXIY-FALSAFIY ASOSLARI	277
QO'ZIYEV G'.	INSON KAPITALI RIVOJLANISHIDA ETNOMADANIY XUSUSIYATLAR	284
NAJIMOVA D.	ABDURAHMON JOMIY VA "BAHORISTON": XV ASR BOLALAR ADABIYOTIGA NAZAR	291
ABDUVAXIDOV A.	MA'RIFATPARVARLIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI	297
ТОЖИБОЕВ А.	ЖАМИЯТДА МАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВ ЖАРАЁНЛАРИ	301
AZAMATOVA S.	"IXVON AS-SAFO" RISOLALARIDA AXLOQIY TUSHUNCHALAR TAHLILI	304
TURSUNBOYEV A.	KUCH TAQVO VA ADOLATDADIR – AMIR TEMURGA ATALGAN BUYUK NASIHAT	308
ABDURASULOV M.	SHARQ FALSAFASIDAGI AXLOQIY QADRIYATLAR VA ULARNING YOSHLARNI YUKSAK MA'NAVİYATLI SHAXS ETIB TARBIYALASHDAGI O'RNI	311
TURSUNALIYEVA D	TURK O'ZLIGINING KO'ZGUSI– KALOG'LON	315
ABDUMALIKOV R.	SHARQ FALSAFASINING YOSHLARNI MA'NAVİYATLI SHAXS ETIB TARBIYALASHDAGI O'RNI	318
AHADOVA M.	ARASTUNING "AXLOQI KABIR" ASARI VA A. AVLONIYNING "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARLARINING AXLOQIY KATEGORIYALAR BO'YICHA KOMPORATIVISTIK TAHLILI	322
НУРМАТОВА Р.	КОНЦЕПЦИЯ АЛИШЕРА НАВОИ О РОЛИ ИСКУССТВА И ЭСТЕТИКИ В НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ ЛИЧНОСТИ	327
MATYAKUBOV I.	NAQSHBANDIYLIK TARIQATINING ASOSIY TAMOYILLARI VA MA'NAVİYATNI YUKSALTIRISHDAGI TA'SIRI	333
ERGASHEV O.	JALOLIDDIN RUMIY: KOMIL INSON MA'NAVİYATINING BUYUK USTOZI	337
NARIMANOV Q.	ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA AXLOQGA OID MASALALARNI O'RGANISHISH ZARURATINING BUGUN KUN MUAMMOLARIGA YECHIMI	342
DADABAYEV I.	ARAB VA AJAM USTOZI MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY	347
IV. FALSAFA VA MA'NAVİY MEROSNI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI		
ИЗЗЕТОВА Э.	НАУКА И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕЛОМЛЕНИИ ФИЛОСОФСКОГО ДИСКУРСА: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ	354
АГЗАМХОДЖАЕВА С	ПЕРЕОСМЫСЛЕНИЕ СУБЪЕКТНОСТИ В КОНТЕКСТЕ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	361